



## OTA-ONA HAMKORLIGI ASOSIDA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KASBGA QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

**Annamuratova Nigora Jorayevna**

**Axmadova Sevinch Axmad qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida ota-ona hamkorligi asosida katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Mazkur jarayon uzluksiz ta'lim tizimi konsepsiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilgan. Bolalarning kasblarga qiziqishi dastlab o'yin faoliyati orqali shakllanishi, ota-onalarning oilada olib boradigan suhbatlari, raqamli vositalardan foydalanishi hamda tarbiyachilar tomonidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar orqali mustahkamlanishi ta'kidlangan. Maqolada ota-ona va tarbiyachi hamkorligi bolalarning kelajakda ongli kasb tanlashlari, mehnatga ijobiy munosabat bildirishlari, ijodkorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirishda muhim omil ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, "Kasblar olami" mashg'ulotlari, rolli o'yinlar, kasb bayramlari, ekskursiyalar, raqamli ta'lim platformalari, ijodiy topshiriqlar va qo'shma loyihalar kabi faoliyatlar orqali bolalarda kasblar olamiga bo'lgan qiziqish samarali tarzda shakllanishi mumkinligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, ota-ona hamkorligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli transformatsiya, tarbiyachi, katta yoshdagi bolalar, kasbga qiziqish, o'yin faoliyati, rolli o'yinlar, kasblar olami, mehnat tarbiyasi, ijodkorlik, tashabbuskorlik, kasb tanlash, "Ilk qadam" dasturi, ekskursiya, qo'shma loyihalar, raqamli ta'lim platformalari.

Maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyalanuvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning kelajak hayotida egallaydigan o'rni, tanlaydigan kasbi va jamiyatga qo'shadigan hissasiga ham asos yaratadi. Shu jihatdan ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishlarini shakllantirish jarayoni ham tarbiyachilar, ham ota-onalar tomonidan birgalikda olib borilsa samaradorlik yuqori bo'ladi[13].

Bolada kasbga qiziqishning ilk kurtaklari o'yin faoliyati orqali shakllanadi. Bola qurilish materiallari bilan o'ynab me'mor, shifokor anjomlari bilan shug'ullanib



## Learning and Sustainable Innovation

shifokor bo'lishni xohlashi, o'yinchoq mashinalarni boshqarib haydovchilikka qiziqishi mumkin. Bu jarayonda tarbiyachining vazifasi bolada qiziqishni aniqlash, uni qo'llab-quvvatlash va zaruriy sharoit yaratishdir. Ota-onaning vazifasi esa oilada kasblarga oid suhbatlar olib borish, bolaga ota-onaning mehnati haqida tushuncha berish, ularni kasblar olamiga qiziqitira olishdir.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi doirasida raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim mazmuniga ham joriy etilmoqda. Bu jarayon maktabgacha ta'limdagi ota-ona va tarbiyachi hamkorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Masalan, raqamli pedagogik texnologiyalar yordamida ota-onalar bolaga kasblar olami haqida interaktiv dasturlar, multimediali materiallar, virtual ekskursiyalar orqali ma'lumot bera oladi. Shu orqali bola nafaqat o'yin shaklida, balki zamonaviy raqamli muhitda ham kasblar bilan tanishadi[12].

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar atrofdagi hayotga qiziqish bildiradi, ko'rgan va eshitgan narsalarini taqlid qilishga intiladi. Shu bois ota-onalar o'z kasbi haqida bolaga sodda va tushunarli tarzda gapirib berishi bilan birga, onlayn uchrashuvlar, kasblar haqidagi videodarslar yoki virtual muzey va ustaxonalar orqali ham kasbiy jarayonlarni tanishtirishi muhimdir. Masalan, ota-onalar bolani kasb-hunar kollejlari virtual ekskursiya qilishlari, korxonalaridagi mehnat jarayonini onlayn kuzatish imkonini berishlari bolaning dunyoqarashini kengaytiradi va unda kasblarga qiziqish uyg'otadi. Tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda "Kasblar olami" nomli mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan chiqishlar va ko'rgazmalar tashkil etish orqali bolalarning qiziqishini yanada mustahkamlashlari mumkin. Shu jarayonda bolaning individual qiziqishlari inobatga olinishi, uni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash lozim. Bolaga kichik vazifalar topshirish, masalan, "kichik shifokor", "kelajak muhandis", "mehnatkash dehqon" kabi rollarda ishtirok etishi, ularning kasblar haqidagi tushunchalarini boyitadi.

Ota-ona va tarbiyachi hamkorligi orqali bolalarda mehnatga ijobiy munosabat shakllanadi. Bu esa kelajakda bolalarning kasb tanlashda ongli qaror qabul qilishiga, o'z qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olgan holda yo'l tanlashiga zamin yaratadi. Demak, maktabgacha ta'lim jarayonida ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligi nafaqat bolaning tarbiyaviy, balki kasbiy yo'nalishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ushbu hamkorlik jarayoni uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya imkoniyatlari bilan boyitilmoqda. Masalan, "Kasblar olami" mashg'ulotlarini an'anaviy ko'rinishda o'tkazish bilan birga, ularni interaktiv ta'lim platformalari, multimedia resurslari, virtual ekskursiyalar orqali tashkil etish bolalarda yanada katta qiziqish uyg'otadi.



AKT texnologiyalar yordamida “kasb burchagi”ni yaratish, onlayn kasb bayramlari o‘tkazish, mobil ilovalar orqali interaktiv topshiriqlarni bajarish raqamli transformatsiyaning samarali ko‘rinishidir[11].

Samarali hamkorlik bolada kelajakka ishonch uyg‘otadi, uning qiziqishlarini mustahkamlaydi va kasblar olamiga bo‘lgan muhabbatini shakllantiradi. Shu tariqa, tarbiyachi va ota-ona birgalikda bolalarning kasbga qiziqishini rivojlantirish orqali ularning kelajak hayotiga poydevor qo‘yadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qilib, uzluksiz ta‘lim tizimi talablariga moslashtiradi.

Bolalarda kasblarga qiziqish uyg‘otishda tarbiyachi va ota-onalarning muntazam aloqada bo‘lishi zarur. Endilikda bu aloqa nafaqat yuzma-yuz, balki raqamli vositalar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, ota-onalar bolalar uchun kasblar haqidagi videodarslar tayyorlashi yoki ularni onlayn ustaxonalar bilan tanishtirishi mumkin. Shu jarayonda ota-onalarning faol ishtiroki bolaning o‘zini erkin ifoda etishiga, kasblar haqida chuqurroq tasavvur hosil qilishiga imkon beradi[10].

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan turli mashg‘ulotlar — “Kasb bayramlari”, “Ota-onamning kasbi” ko‘rgazmalari, “Kasblar dunyosiga sayohat” kabi tadbirlar bugungi raqamli transformatsiya sharoitida yangi ko‘rinishda o‘tkazilishi mumkin. Masalan, virtual ko‘rgazmalar, onlayn mahorat darslari, interaktiv sahnalashtirish orqali bolalar turli kasblar olamiga yanada yaqinlashtiriladi[5].

Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishlarni rivojlantirish uchun oilaviy tarbiya va maktabgacha ta‘lim jarayonini uyg‘unlashtirish bilan birga, uzluksiz ta‘lim tizimi doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya imkoniyatlarini keng qo‘llash zarur. Bu nafaqat bolalarning kelajakdagi kasb tanloviga zamin yaratadi, balki ularda mehnatga muhabbat, ijtimoiy mas‘uliyat, ijodkorlik va tashabbuskorlik kabi fazilatlarni ham shakllantiradi.

Maktabgacha ta‘lim tizimi tarbiyalanuvchilarni kelajak hayotga tayyorlashda, ularning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga ham zamin yaratadi. Bola hayotida kasblar olami bilan tanishish ilk qadamlarni qo‘yish davrida, ya‘ni maktabgacha yoshdanoq boshlanadi. Bu jarayonda ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi[9].

Bolalarda kasbga qiziqish, avvalo, o‘yin faoliyati orqali shakllanadi. Bola qurilish materiallari bilan o‘ynab me‘mor, shifokor anjomlari bilan shug‘ullanib shifokor bo‘lishni xohlashi, o‘yinchoq mashinalar bilan shug‘ullanib haydovchilikka qiziqishi mumkin. Tarbiyachining vazifasi — bolada qiziqishni aniqlash, uni qo‘llab-quvvatlash



va zaruriy sharoit yaratishdir. Ota-onaning vazifasi esa oilada kasblarga oid suhbatlar olib borish, bolaga ota-onaning mehnati haqida tushuncha berish, kasblar olamiga qiziqтира olishdir.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishi va ta'lim olishi uchun muhimdir. "Ilk qadam" dasturida ham oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining uyg'un hamkorligi bolaning shaxsiy rivojlanishida zaruriy shart sifatida ko'rsatilgan.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi doirasida bu jarayon zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya bilan boyitilib bormoqda. Kasblar olami bilan tanishtirish faqat an'anaviy o'yinlar yoki suhbatlar bilan chegaralanib qolmay, balki multimediali vositalar, interaktiv dasturlar, virtual ekskursiyalar va raqamli o'yinlar orqali ham amalga oshirilmoqda. Masalan, bola shifokorning ish faoliyatini faqat sahnalashtirish orqali emas, balki interaktiv video yoki AKT texnologiyalari yordamida ham kuzatishi mumkin[8].

Demak, bola kasbga qiziqishini uyg'otishda ikki muhim muhit — oila va ta'lim tashkiloti bir-birini to'ldiruvchi asosiy tizim sifatida ko'riladi. Endilikda bu tizimga zamonaviy texnologiyalar ham qo'shib, ota-onalar va tarbiyachilarga bolalarni kasblar olami bilan kengroq tanishtirish imkonini bermoqda. Natijada bola kelajakda ongli kasb tanlashi, o'z qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olib to'g'ri yo'l tanlashiga mustahkam poydevor yaratiladi[7].

**Amaliy tavsiyalar.** "Ota-onamning kasbi" kuni – har bir ota-ona o'z kasbi haqida bolalarga sodda va qiziqarli tarzda gapirib beradi, ish qurollari yoki jihozlarini olib keladi va ko'rsatadi. Bu bolalarda turli kasblarga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

**Kasblar burchagi** – guruh xonasida turli kasblar uchun atributlar (shifokor asboblari, qurilish jihozlari, oshpaz qurollari, rassom anjomlari va boshqalar) joylashtiriladi. Bolalar ular orqali o'yin shaklida kasbga taqlid qiladilar.

**Rolli o'yinlar** – "Shifoxona", "Do'kon", "Qurilish maydoni", "Fermer xo'jaligi" kabi o'yinlarni tashkil etish orqali bolalar kasb jarayonlarini o'zlashtiradilar.

**Kasb egalari bilan uchrashuv** – tarbiyachilar ota-onalar va jamoat vakillaridan turli kasb egalari bilan uchrashuv tashkil etib, bolalarni amaliy jarayon bilan tanishtiradilar.

**Ijodiy topshiriqlar** – bolalarga "Kelajakda kim bo'lasan?" mavzusida rasm chizish yoki kichik insho tuzish vazifasi beriladi. Bu ularning kasblar haqidagi tasavvurlarini boyitadi va qiziqishini mustahkamlaydi.

**Ekskursiyalar** – kasbga oid muassasalarga (kutubxona, shifoxona, ustaxona, fermer xo'jaligi, muzey va boshqalar) sayohat uyushtirish bolalarda real mehnat jarayonini



ko‘rish imkoniyatini beradi.

**“Kasb bayramlari”** – turli kasblar kuni (masalan, shifokorlar kuni, o‘qituvchilar kuni, quruvchilar kuni) munosabati bilan kichik tadbirlar tashkil etish va ota-onalarni jalb qilish bolalarda kasbga hurmatni oshiradi.

**Ota-onalar bilan qo‘shma loyihalar** – bolalar ota-onalari bilan birgalikda “Kasblar haqida albom”, “Kasblar olami maketi” kabi ijodiy ishlar tayyorlaydi va guruhda taqdim etadi.

**She‘r, qo‘shiq va ertaklardan foydalanish** – turli kasblar haqida she‘r va qo‘shiqlarni yodlash, ertaklar eshitish bolalarda ijobiy tasavvur uyg‘otadi.

**Mustaqil vazifalar** – bolalarga oddiy topshiriqlar (o‘yinchoqni ta‘mirlash, gullarni sug‘orish, kitoblarni tartibga solish) berish ularning mehnatga qiziqishini va kasblarga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi[6].

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirish — ularning kelajak hayotida ongli tanlov qilishlari uchun zarur jarayondir. Bu jarayonda ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Oila bolaning dastlabki tarbiya makoni sifatida kasblar haqida birlamchi tasavvurlarni shakllantirsa, ta‘lim muassasasi ularni kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Samarali hamkorlik bolaning qiziqishini mustahkamlab, kasblar olamiga muhabbat uyg‘otadi va kelajak hayotiga poydevor qo‘yadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
2. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun. O‘RQ 595-son. 16.12.2019 yil.
3. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti. 802-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori. 20.12.2020 yil
4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312-son. 08.05.2019 yil
5. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
6. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
7. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.



8. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
9. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
10. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.
11. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
12. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.
13. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.